

BANK KODEKSINING MOHIYATI, BANK XODIMINING KASBIY XULQ- ATVORI

*Abduvaxobov Shaxzod Xolmo'min o'g'li
 Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
 Bank ishi kafedrasi assistenti,
 Baxtiyorova Mashxura Fatxiddin qizi
 Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank kodeksining mazmun-mohiyati, uning bank tizimidagi ahamiyati hamda bank xodimlarining kasbiy xulq-atvori masalalari yoritilgan. Bank kodeksi moliyaviy muassasalarining ichki intizom, etik me'yorlar va professional faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asos sifatida baholanadi. Unda xodimlarning mijozlar bilan munosabati, halollik, oshkoraliq, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish kabi prinsiplar o'z aksini topgan. Shuningdek, maqolada bank xodimlarining kasbiy xulq-atvori samaradorlik, ishonchlilik va barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Mazkur masalaga oid xalqaro tajribalar va O'zbekiston bank tizimidagi amaliyotlar solishtirma tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bank kodeksi, etik me'yorlar, kasbiy xulq-atvor, bank xodimi, moliyaviy intizom, mijoz bilan munosabat, halollik, bank tizimi, professionallik, ishonchlilik.

Kirish. Banklar moliyaviy tizimning markaziy bo'g'ini bo'lib, ular nafaqat iqtisodiy muammolarni hal qilishda, balki jamiyatda ishonchni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, bank faoliyatining samarali va ishonchli bo'lishi uchun bank kodeksining mohiyati, xodimlarning kasbiy xulq-atvori va professional etik me'yorlari alohida ahamiyatga ega. Bank kodeksi, avvalo, banklar va ularning xodimlari uchun qoidalar va tamoyillar majmuasini tashkil etib, ularning professional faoliyatini tartibga soladi. Ushbu kodeks bank tizimining barqarorligini, mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifatini va moliyaviy operatsiyalarni oshkoraligini ta'minlashga yordam beradi.

Bank xodimining kasbiy xulq-atvori esa uning harakatlari va qarorlari orqali tashkilot ichidagi ish muhitini shakllantiradi. Xodimlar o'z ishlarida etik prinsiplarga amal qilishlari, mijozlar bilan ochiq va halol munosabatda bo'lishlari, shuningdek, har bir jarayonda bankning obro'-e'tiborini yuqori tutishlari zarur. Bu bank tizimining nafaqat ichki barqarorligi, balki jamiyatda umumiy ishonchni oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada bank kodeksining mazmuni va uning xodimlarning kasbiy xulq-atvori bilan bog'liqligi, shuningdek, bu huquqiy asoslarning bank faoliyatidagi samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bank

xodimlarining kasbiy xulq-atvori orqali mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash va bank tizimining ishonchlilagini oshirishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola davomida, O‘zbekiston bank tizimi misolida amaliy tahlil va xalqaro tajribalar solishtirilgan holda, bank kodeksining roli va uning samarali ishlatalishi yo‘llari ishlab chiqiladi.

Asosiy qism. Banklar orqali nafaqat fuqarolarga xizmat ko‘rsatiladi, balki mamlakat ichidagi moliyaviy barqarorlik, investitsiya muhitining rivojlanishi va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham ta’minlanadi. Aynan shu sababli bank tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Ularning kasbiy xulq-atvori, halolligi va mijozlarga bo‘lgan munosabati butun tizimga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi.

Bank xodimining o‘z kasbiga sadoqati, yuksak axloqiy me’yorlarga amal qilishi hamda halol ishlashi bevosita bank kodeksi bilan belgilanadi. Bank kodeksi bu – bank tizimida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis uchun yo‘riqnomalarini vazifasini bajaradigan, axloqiy va kasbiy tamoyillarni o‘z ichiga olgan hujjatdir. Uning asosiy vazifasi bank xodimlarining odob-axloq qoidalarini belgilash, ularga mijozlar va jamiyat oldida qanday tutumda bo‘lish kerakligini ko‘rsatishdir. Bank kodeksi odatda bir nechta asosiy tamoyillar asosida shakllanadi. Eng birinchi navbatda bu – halollik tamoyilidir. Har bir bank xodimi o‘z faoliyatida halol va vijdonan harakat qilishi, mijozlarning ishonchini oqlashi zarur. Masalan, mijozning shaxsiy ma’lumotlarini yashirish, bank sirini saqlash, har qanday holatda ham adolat bilan ishlash halollik tamoyilining asosiy ko‘rinishlaridandir.

Ikkinci muhim tamoyil bu – mas’uliyatlilik. Bank xodimi o‘zining har bir qaroriga va harakati uchun javobgarlikni his qilishi lozim. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishda loqaydlik, befarqlik yoki xatolikka yo‘l qo‘yish nafaqat bank obro‘siga putur yetkazadi, balki mijozlarning ham moddiy va ma’naviy zarar ko‘rishi sabab bo‘ladi. Yana bir tamoyil – adolat va xolislikdir. Bank tizimida ishlayotgan har bir mutaxassis har bir mijozga teng munosabatda bo‘lishi, ularga qarshi kamsitish yoki tarafkashlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak. Mijozning moliyaviy ahvoli, jinsi, yoshi, millati yoki ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, unga teng sharoitda xizmat ko‘rsatish muhimdir. Bank kodeksining yana bir muhim jihat – maxfiylik masalasidir. Bank xodimlari xizmat faoliyati davomida mijozlar, tashkilotlar yoki boshqa banklar haqidagi ko‘plab sirli ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. Ushbu ma’lumotlar sir saqlanishi va hech qanday holatda oshkor etilmasligi lozim. Shuningdek, bank xodimining tashqi ko‘rinishi, muomala madaniyati, gap-so‘zi ham bank kodeksida nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Har bir xodim o‘zini madaniyatli, to‘g‘ri va do‘stona tutishi, mijoz bilan o‘zaro hurmat asosida muloqotda bo‘lishi zarur. Bu bank xodimining kasbiy madaniyatidan darak beradi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida ham ushbu kodeks asosida ish yuritish, xodimlarni muntazam ravishda o‘qitish, ularni axloqiy jihatdan tarbiyalash yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Markaziy bank va tijorat banklarining ichki nizomlarida bank kodeksi va kasbiy xulq-atvor qoidalari alohida o‘rin olgan. Bank kodeksi va bank xodimining kasbiy xulq-atvori – bank tizimining asosi hisoblanadi. Bu ikki tushuncha orqali jamiyat va mijozlar bilan mustahkam, ishonchli aloqalar shakllantiriladi. Shuningdek, bu bank tizimining barqaror ishslashini, obro‘-e’tiborining oshishini ta’minlaydi. Har bir bank xodimi ushbu kodeksiga amal qilsa, nafaqat o‘z faoliyatini, balki butun tizimning ishonchlilagini ta’minlashga hissa qo‘sadi. Bank kodeksining ahamiyati shundaki, u nafaqat xodimlarning qanday huquqlarga ega ekani va ularning javobgarligi haqida ma’lumot beradi, balki bank xizmatlarining sifati va ishonchlilagini ta’minlashda muhim huquqiy poydevor hisoblanadi. Hozirgi global moliyaviy muhitda bank tizimiga nisbatan ishonch darajasining baland bo‘lishi, aynan mana shu ichki me’yoriy hujjatlar va kasbiy axloqiy standartlar bilan chambarchas bog‘liq.

Kasbiy xulq atvori tushunchasi esa xodimlarning ichki madaniyati, xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlarga munosabati bilan bevosita bog‘liqdir. Bank xodimlarining o‘z vazifalariga professional yondashuvi, axloqiy me’yorlarga amal qilishi – nafaqat bir bank, balki butun bank tizimining obro‘sini oshiradi. Ayniqsa, yirik moliyaviy muassasalarda mijozlar bilan muloqot madaniyati va axloqiy prinsiplar ustuvor o‘rinda turadi. Bugungi kunda bank xodimlarining axloqiy fazilatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: sadoqatlilik, halollik, xolislik, kasbiy sirni saqlash, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, doimiy rivojlanishga intilish. Bank kodekslari, nafaqat milliy banklar tajribasida, balki xalqaro moliyaviy institatlarda ham keng qo‘llaniladi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar tez rivojlanib borayotgan bir paytda, bank xodimlarining axloqiy me’yorlarga amal qilishi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki elektron bank xizmatlari orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar shaffoflik, ishonchlilik va xavfsizlikni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida, bank kodeksining barcha bosqichlarda amal qilinishi va doimiy yangilanib borishini taqozo etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bank kodeksi nafaqat moliyaviy muassasalarda ichki tartib-intizomni ta’minlovchi hujjat, balki bank tizimining ishonchliligi va barqarorligining asosi hisoblanadi. U bank xodimlarining kasbiy faoliyatida qat’iy amal qilinishi lozim bo‘lgan axloqiy me’yor va qoidalarni belgilab beradi. Kodeks talablariga rioya qilish bank xizmatlarining sifatini oshirish, mijozlar ishonchini mustahkamlash, shuningdek, korruption holatlar va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Bank xodimining kasbiy xulq atvori esa, uning professionalligi, halolligi, odobliligi va mijozlarga nisbatan hurmatli munosabatda bo‘lishini aks ettiradi. Bugungi raqobatbardosh bank tizimida har bir xodimning etik tamoyillarga sodiqligi tashkilotning obro‘siga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli,

bank muassasalari rahbarlari xodimlar o‘rtasida axloqiy madaniyatni rivojlantirish, kodeks me’yorlarini tushuntirish va amaliyotda qo‘llash borasida doimiy ish olib borishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Adolat, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti: <https://www.cbu.uz>
3. Turg‘unov A.S., “Bank tizimida axloqiy me’yorlar va xizmat madaniyati”. “Moliyaviy ta’lim” jurnalı. 2022.
4. Karimov S.A. “Etika va kasbiy madaniyat asoslari”. Ilm Ziyo, 2020.
5. Komilov D.X. “Bank xodimining kasbiy axloqi va mijozlar bilan munosabatlar”. 2023.
6. <https://uba.uz/uz/info/code-banker/>
7. <https://cbu.uz/uz/documents/3333/>
8. <https://hamkorbank.uz/en/about-bank/code-of-ethics/>